

O'ZBEKISTON: ZAMONAVIY ILM-FAN VA TADQIQOT MASALALARI

ABDUVALI QUTBIDDIN IJODIDA OBRAZ VA LIRIK KECHINMA MASALASI

Ramazonova Gulchehra Xidirali qizi

*ToshDO'TAU Adabiyotshunoslik (o'zbek adabiyoti) fakulteti 2-kurs
magistranti*

gulchehramazonova@gmail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada Abduvali Qutbiddin lirikasida obraz yaratish usullari va lirik kechinmalarning badiiy ifodasi masalasi tahlil qilinadi. Lirik kechinma va obraz tushunchalariga ta'rif berildi. Shoir qalamiga mansub she'rlar tahlilga tortildi. Lirik kechinmaning turlari haqida so'z yuritildi. Abduvali Qutbiddinning obraz yaratishdagi mahorati misollar orqali dalillandi.

Kalit so'zlar: tasavvuf, parodoksal, postmodernizm, obraz, lirik kechinma.

Abduvali Qutbiddin nomi o'zbek she'riyatida, ayniqsa so'nggi o'ttiz yillik adabiy jarayonda, o'ziga xos va hech qanday qoliplarga bo'ysunmaydigan shoirlardan biri sifatida tanilgan. Uning ijodi – an'anaviy sharqona tasavvufiy obrazlardan tortib, postmodernizm davrigacha bo'lgan katta jarayonni qamrab oladi. Qutbiddin o'z ijodida ramziy obrazlar qanday qilib hissiy kechinmalarning estetik obyektiga aylanishini ochib beradi. “Tana doim oziqlanib turmasa yashay olmaganidek ,ruhiyat ham shu qonunga bo'ysunadi”- degan edi, adabiyotshunos Sh.L.Voverang. Shu ma'noda adabiyot inson ruhiyatining oziqasi.“ Abduvali Qutbiddin o'zbek adabiyotida o'zining she'riyat maktabini yarata olgan ,ruhiy va falsafiy sezimlar ,anglanganda hayrat osmonida qoladigan she'rlari bilan hali necha-necha avlodlar qalbida yashay oladigan ijodkor. Uning she'rlarini o'qir ekansiz ,ba'zan tashbeh va istioralarni tasavvuringizga sig'dirolmay hapriqib qolasiz. Mutolaa davomida nurli bir zavq yuragingizni to'ldiradi, oyog'ingiz ostida yerni his qilmay qolasiz ,butun dunyoni shaxsiy o'y -hayollaringizni unutib ,sirli tasavvurlar va manzaralar olamiga parvoz qilasiz “- degan edi Aziz Said .Shoir she'rlari xuddi shunday, insonni o'zini taftish qilishga majbur etadi ,u yaratgan obrazlar yuraklarni chertib o'tadi.

Obraz – borliqning san'atkor ko'zi bilan ko'rilgan va ideali asosida ijodiy qayta ishlanib ,hissiy idrok etish mumkin bo'lgan shaklda ifodalangan aksidir. Albatta, bu aksda borliqning ko'plab tanish izlarini topamiz , biroq bu endi biz bilgan borliqning aynan o'zi emas , balki tamoman yangi mavjudlik-badiiy borliqdir”.⁷⁰ Abduvali Qutbiddin she'rlarida obraz ko'pincha mavhum hissiyotlarning emas, balki murakkab ontologik tajribaning timsoli sifatida

⁷⁰ Dilmurod Quronov – Adabiyot nazariyasi asoslari oshkent:” Navoiy universiteti”.-2018. 90-bet.



namoyon bo'ladi."Obraz muallif tuyg'ularining ifodasi o'laroq vujudga keladi yoxud obraz shoir chizgan suratdir.Obraz elementlarida muallif lirik kechinmalari aks etadi."⁷¹ Masalan, "murdai sabo" (sabo shamolidan o'lgan) tarkibi – an'anada sabo xush xabar keltiruvchi shabada sifatida talqin etilsa, shoirda esa u ichki falokatning ramzi. Lirik kechinma bu yerda "o'limdan oldingi titroq" kabi tasvirlanadi. Shoir obraz orqali o'zining ayni damda yolg'izligini, dunyoga ishonchsizlik tuyg'usini beradi. "Abduvali Qutbiddin lirikasida kechinma klassik she'riyatdagi kabi ochiq-oydin ifodalanmaydi. U obrazlar qatlami ostida yashiringan bo'lib, o'quvchi she'rni qayta-qayta o'qish orqali asta-sekin kashf etadi. Shoirning "murdai sabo" timsoli – bu tushkunlikning emas, balki tushkunlikdan keyingi sukunatning ramzidir. Qutbiddindagi lirik kechinma – jarayon, natija emas."⁷² Yana bir muhim obraz – 5"ko'zda o'sadigan gul". Bu aslida hech bir mantiqqa to'g'ri kelmasa ham, lirik kechinmaning manipulyatsiyasini ifodalaydi. Ko'zdan chiqqan yosh yoki so'ngan umid natijasida ochilayotgan bu gul – azobning estetik obyektga aylanishidir. Jamoliddin Turdimov lirik kechinma va poetik obraz aloqasi haqida shunday fikr yuritadi: "Kechinma va poetik obrazning o'zaro aloqasini inkor qilib bo'lmaydi, chunki poetik obrazlarga baribir lirik kechinma ,she'rga bergan umumiy kayfiyat, bo'yoqning mazmunning nuqsi uradi. She'rdagi har bir nuqta kechinmadan kelib chiqadi va u bilan aloqador".⁷³ Shu ma'noda Abduvali Qutbiddin obrazlar va tuyg'ularni sintez qilib, his kechinmaning o'zini moddiy shaklga keltiradi. Shoirning "Hech kim suygan emas meni senchalik" she'rida lirik qahramonning kechinmasi tadrij shaklda rivojlanadi: hayrat – iztirob – anduh- alam – o'kinch. Dastlabki misralar zaxob yutgan olcha barg, temir dubulg'ada o'sgan chinnigul, junjikuvchi jon kabi obrazlar bilan yo'g'rilgan. Bu tashqi dunyoning xaosi emas, balki ichki portlashning tashqi proyeksiyasidir.

olmoqqa tanga

meni senchalik

yongan alanga

*Na taqdir bituvchi
Na battol raqib
Bermagan saodat*


Hech kim yondirmagan

Qaqnus tumshug'ida

⁷¹ Xudoyorova Gulrux -Abdulla Oripov she'riyatida lirik kechinma va poetik tasvir uyg'unligi .Dissertatsiya . Toshkent. 2022. 83-bet

⁷² S. Qurbonov – "Lirik kechinma va uning badiiy tipologiyasi" (2017)

⁷³ Xudoyorova Gulrux -Abdulla Oripov she'riyatida lirik kechinma va poetik tasvir uyg'unligi .Dissertatsiya . Toshkent. 2022. 83-bet



O'ZBEKISTON: ZAMONAVIY ILM-FAN VA TADQIQOT MASALALARI

Hech kim suygan emas

senchalik.

So'nggi misralarda obrazning taqdirga tan berishi shunchaki vaqtinchalik jarayon ekanligiga, olovda tug'ilib olovda yashaydigan qush tumshug'idagi cho'g' go'yo, ishqning yana qaytishiga, muhabbat esa alangaga, u hech qachon so'nmasligiga, battol raqiblarning qarshiliklariga qaramay yana ko'ngilga in qurishiga ishora mavjud. Shoir ijodida "sevgi changali" obrazi mavjud. An'anaviy tarzda "sevgi panjasi" o'rniga "changel" so'zining ishlatilishi ham badiiy obraz qiymatini oshiradi. "Changel"– yirtqich hayvon panjasi ma'nosini beradi, bu esa kechinmaning og'riqli, zalvorli, hatto xavfli jihatini ko'rsatadi. "Sabr narvoni" obraz– bu yuqoriga bo'y cho'zgan, ammo sinadigan zina. Lirik kechinma bu yerda hayot pog'onalarini sekinlik bilan bosib o'tish sifatida gavdalanadi, og'riqni boshqarish estetikasiga aylanadi. Lirik kechinma poetik obrazlar, badiiy ko'chimlar (o'xshatish, metafora) va emotsional bo'yoqdor so'zlar vositasida ifodalanadi. Uning mohiyati o'quvchida shaxsiy his-tuyg'ular orqali umuminsoniy kechinmalarni uyg'otishga qaratilgan. Abduvali Qutbiddin ijodi mana shunday qiziqarli va o'z o'rnida murakkab. Muallif qalamiga mansub "Aprel" she'ri ham ijodkor yaratgan badiiy topilmalardan biridir.

Subhlar ho'playdi patli

havoni

Bir kun yolg'onchilik

qiladi aprel


Men sening kelishing hech

istamayman

Biroq kel.

Go'zal tong otishidan oldin minglab g'ubor –u changlarni o'z izmiga singdiradi. Aprel oyining birinchi kuni yolg'onning boshlanishidir. Qolgan kunlar ham haqiqat bilan o'tadimi yoki yo'q buning hech qanday aloqasi yo'q. "Senga kelma deyishim, bu ham bir yolg'on, chunki albatta kelishingni bilaman. Mendan izn olishing ham shart emas, qachon kelishing o'zingning ixtiyoringda." Shoir bizning nazdimizda bunday so'zlarni faqat o'limga nisbatan ishlatishi mumkin. Zero, o'lim haq. Hayot qonuni tug'ilmoq va o'lmoqdir. Keyingi misralarda ham "Visol tog'i", "Ko'k sandig'i", "Uch gaz bulut" kabi jumalarning keltirilishi ham bunga yaqqol misol bo'la oladi. Aynan nega "laqma aprel", chunki hayotimizning har bir kuni yolg'onlarga to'ladir. Shu boisdan "Ey aprel, bunchalik laqma bo'lma, seni yolg'onchi kun deyishsa, bunga ishonib boshingni egma,"-degan chaqiriq yangraydi.

Abduvali Qutbiddin lirikasida obraz nafaqat so'z, balki tovush va pauza orqali ham tuziladi. Uning erkin vaznli she'rlarida bo'g'inlar qasddan keskin uziladi, bu esa psixologik kinoya yoki bo'g'ilgan nafas – ya'ni hissiy kechinmaning fiziologik belgisini ifodalaydi. Masalan: "Bir / ishonch / yirtig'i /



qolgan / nilufar / bag'rida" – har bir soʻzdan keyin pauza – lirik qahramonning soʻzni haqiqiy vaznga solish uchun kurashi.

Abduvali Qutbiddin sheʼrlarida ayol obrazi – Laysa, Layli, Zuhro kabi timsollar, Osima individual obrazi – lirik kechinmaning asosidir. Dastlabki sheʼrlarda ayol – mushkul topishmoq, yetib boʻlmas makon obrazi sifatida aks etadi. Keyingi davrlarda esa bu obraz “muammo” emas, balki “sabr maktabi”ga aylanadi. Lirik kechinma iztirobdan minnatdorchilikka oʻzgaradi. Shoir bir sheʼrida: “Sen mening yukimning eng ogʻir sababi va ayni paytda yengil kitobim” – paradoksal obraz orqali murakkab psixologik bogʻliqlik ifodalangan. Shoir bu yerda ayolni na butunlay ilohiylashtiradi, na naflanadi – balki uning mavjudligidagi ziddiyatni lirik kechinmaning generatori sifatida koʻrsatadi.

N.Joʻrayev Qutbiddin lirik kechinmasining uch bosqichini ajratadi:

1. *Datchik bosqichi – hisning paydo boʻlishi*
2. *Transformer bosqichi – hisning obrazga aylanishi*
3. *Rezonator bosqichi – obrazning oʻquvchiga taʼsiri.*

Abduvali Qutbiddin ijodida lirik kechinma va obraz nafaqat syujet, balki sheʼrning oʻzi – tili, ritmi, pauzalari darajasida ifodalanadi. Qutbiddin obrazlar dunyosi – bu mutlaqo erkin, baʼzida dahshatli, baʼzida yengil, lekin hech qachon yolgʻon ishlatmaydi. Shu jihatdan uning sheʼriyati oʻzbek lirikasida obraz va kechinma bogʻlanishining eng mukammal namunalaridan biri deyish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abduvali Qutbiddin – Soʻz chamani. – Toshkent: Akademiya nashri, 2020. – 128b.
2. Abduvali Qutbiddin – Nayson. – Toshkent: Adabiyot va sanʼat nashriyoti, 1988. – 78b
3. Dilmurod Quronov – Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent: “Navoiy universiteti”, 2018. – 420b.
- a. S. Qurbonov – “Lirik kechinma va uning badiiy tipologiyasi”. Dissertatsiya. Toshkent. 2017.
4. Xudoyorova Gulrux – Abdulla Oripov sheʼriyatida lirik kechinma va poetik tasvir uygʻunligi. Dissertatsiya. Toshkent. 2022. – 134b

